



UNIVERSITETLAR VA INTELLEKTUAL MULK: INTELLEKTUAL MULKNI YARATISH SIYOSATINI QANDAY TARTIBGA SOLISH KERAK?

Toshkanov Nurbek Bahriddinovich
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya. Maqolada universitetlar va ilmiy tadqiqot tashkilotlarida intellektual mulk siyosati o'rnatilishining ahamiyati, uning "tadqiqotchi-universitet-biznes" ko'prigi sifatidagi o'rni haqida fikr yuritilgan. Bu boradagi xorij tajribasi tahlil qilinadi. Universitet 3.0 darajasiga yetish O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari, xususan, O'zbekiston Milliy universiteti uchun vazifa sifatida belgilanar ekan, Universitet 4.0 kontseptsiyasi jahonda keng tatbiq qilinayotgani, shu sababli "ta'lim-tadqiqot-tijoratlash-tirish-davlat va jamiyat rivojida o'rin egallash" zanjirini imkon qadar tezroq yo'lga qo'yish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Intellektual mulk siyosati, Universitet 3.0, Universitet 4.0, biznes sektor, tijoratlash-tirish, texnologiyalar transferi.

Аннотация: В статье анализируется роль политики ИС в процессе исследователь-университет-бизнес. В нем утверждается, что, несмотря на то, что Национальный университет должен быть преобразован в университет, нам необходимо сосредоточиться на переходе к университету 4.0. При этом мы можем успешно двигаться по цепочке образование-исследования-коммерциализация-социальное воздействие.

Ключевые слова: ИС, Университет 3.0, Университет 4.0, бизнес-сектор, трансфер технологий, коммерциализация.

Abstract: This article analysis the role of IP politics, the process of researcher-university-business. It argues although it is set out that National University should be transferred to University, we need to concentrate to moving to University 4.0. In doing this, we can successfully move towards the chain of education-research-commercialisation-social impact.

Keywords: IP, University 3.0, University 4.0, business sector, technology transfer, commercialisation

Ma'lumki, ta'lim maskanlari qadimdan taraqqiyot, sivilizatsiya o'chog'i bo'lib kelgan. Madrasalar, turli akademiyalar va universitetlar shular jumlasidandir. Bugungi kunda ham ularning ahamiyati ortsa ortdiki, aslo kamaygani yo'q. So'nggi yillarda yurtimizda ta'lim asosiga, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi tasdiqlandi. Kontsepsiyada ta'kidlanganidek, universitetlarda, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellectual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Bu esa mazkur universitetning ilmiy salohiyati boshqa oliy ta'lim muassasalariga nisbatan anchayin yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek, kontsepsiyaning 2-bobida oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar qatorida innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi yetarli emas, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta'minlanmaganligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Ayni shu sababdan oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan edi:

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" kontsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalari tarkibida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarni tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilish va prognozlashtirish bo'yicha faoliyat olib borishlarini ta'minlash;

professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarini tashkil etiladigan texnoparklarda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishish;

byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga startup loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar va texnika-texnologiyalarni yaratish orqali oliy ta'lim muassasalari huzurida ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchi "spin-off" va "spin-out" korxonalarini tashkil etish, akademik tadbirkorlikni rivojlantirish;

ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini tijoratlashtirish kabi masalalarda kadrlar buyurtmachilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro manfaatli

hamkorlikni yo'lga qo'yish, biznes inkubatorlar va venchur moliyalashtirish faoliyatini rivojlantirish, mazkur masalalarda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib borish.

Natijada esa Kontseptsianing 4-bobiga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" kontseptsiyasi bosqichma-bosqich joriy etilishi kutilgan edi.

UNIVERSITET 3.0 NIMA?

Universitet 3.0 "Uchinchi avlod universiteti", yoki "Universitet 3.0", esa fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati bilan ham shug'ullanadi.

Biroq bugungi kunda "Universitet 4.0" yuqoridagi barcha sifatlarni o'zida jamlab, raqamlashtirilgan va biznes jarayonlari avtomatlashtirilgan makon sifatida namoyon bo'lmoqda. "Universitet 4.0" yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda yetakchiga aylanib, ommaviy ishlab chiqarishdan iste'molchilarning individual talablari asosida xizmatlar yetkazadi.

Bu borada "Universitet 4.0" talabalarning individual ehtiyojlari asosida o'quv reja va dasturlar tayyorlaydi. "Universitet 4.0" talabalarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiy ko'nikmalariga ham ustuvor e'tibor qaratadi.

XORIY TAJRIBASI

Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari yaratgan intellektual mulk ob'ektlarining tijoratlashtirish tizimi keng yo'lga qo'yilsa, undan olinadigan iqtisodiy foyda mazkur muassasalar faoliyatini yanada rag'batlantirishga turtki bo'ladi. Shuningdek, mavjud intellektual mulkni boshqarish tizimini shakllantirish va takomillashtirishga katta hissa qo'shadi.

Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan muassasalarda intellektual mulkni boshqarish bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirish, shuningdek, ularni tijoratlashtirish bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni hal etish uchun har bir tashkilot kesimida intellektual mulk sohasini rivojlantirish bo'yicha uch yillik dastur yoki intellektual mulk siyosatini ishlab chiqish davr talabi hisoblanadi.

Bu borada xorijiy tajribani o'rganish muhim ahamiyatga ega. Xorijiy universitetlarda, xususan, AQSh oliy ta'lim muassasalarida intellektual mulk siyosatini shakllantirish bo'yicha katta tajriba to'plangan. 1932 yilda jahon amaliyotida birinchi marta Massachusetts texnologiya instituti rasmiy patent siyosatini, 1940 yilda esa patent siyosati va uning protseduralari to'g'risidagi rasmiy nizomni qabul qilgan.

Kaliforniya universiteti 1943 yilda, Pensilvaniya universiteti 1953 yilda, Garvard universiteti esa 1975 yilda rasmiy patent siyosatini qabul qildi. 1980-1990 yillarda AQShda universitetlarning intellektual faoliyati natijalarini tijoratlashtirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan bir necha qonunchilik hujjati amalga kiritildi.

Koreya Respublikasida ham birinchilardan bo'lib, universitetlar va korxonalar o'rtasida yaqin amaliy munosabatlar o'rnatilishi muhimligini anglab, mamlakatda universitetlar va biznes o'rtasida keng ko'lamli hamkorlik qilish uchun bir qator qonunlar qabul qilingan.

1990 yillarning oxirlarida Yaponiya firmalarining axborot texnologiyalari va biotexnologiyalar kabi muhim sohalarda AQSh kompaniyalariga nisbatan raqobatbardoshligini yo'qotishi mazkur davlatda universitetlar va sanoat o'rtasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlovchi aloqalar o'rnatilishiga zamin bo'ldi. Kompaniyalar o'zlarining barcha tadqiqotlarini mustaqil bajarish o'rniga universitetlarda to'plangan bilimlardan foydalanishga qiziqish kuchaydi. Raqobat bosimi ostida universitetlar tomonidan ishlab chiqilgan ilg'or bilimlardan foydalanish Yaponiya uchun eng ustuvor masalaga aylandi. Natijada, mamlakatning yetakchi universitetlari intellektual mulk sohasida o'z siyosatini ishlab chiqdi.

Jahon intellektual mulk tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda jahonda 579 ta universitet va ilmiy-tadqiqot instituti intellektual mulk bo'yicha o'z siyosatini ishlab chiqqan.

Turli mamlakatlardagi universitetlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, "fundamental tadqiqotlardan sanoat ishlab chiqarish bosqichiga qadar" kontseptsiyasi muvaffaqiyatining asosi intellektual mulk ob'ektlarini yaratish, ularni muhofaza qilish va tijoratlashtirish jarayonlarini ta'minlaydigan samarali ishlaydigan huquqiy mexanizmni shakllantirishdan iborat. Boshqacha aytganda, bu ko'p jihatdan universitetning yaxshi shakllangan intellektual mulk siyosatiga bog'liq.

Jahondagi yetakchi universitetlarning amaldagi intellektual mulk siyosati tahlili shuni ko'rsatadiki, bu huquqiy mexanizm universitetning tadqiqot natijalarini yaratish va amalda qo'llashni rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan. Unda barcha manfaatdor tomonlarning huquq va harakatlari aniq belgilangan, tadqiqot va ta'limni yanada qo'llab-quvvatlash uchun intellektual mulk huquqlarini amalga oshirishdan daromad olish nazarda tutilgan.

Shuningdek, Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun intellektual mulk siyosati to'g'risida Butunjahon intellektual mulk tashkilotining namunaviy nizomi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur nizomni mamlakatimizda mavjud ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalariga moslashtirgan holda qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

OLIY TA'LIM VA ILMIY-TADQIQOT MUASSASALARI UCHUN INTELLEKTUAL MULK SIYOSATI TO'G'RISIDA NIZOM NIMA BERADI?

Bugungi kunda ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar, faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar hamda doktorantlarga quyidagi savollardan biri berilsa, bizningcha, javob topish anchayin qiyin bo'ladi:

- 1) ta'lim muassasasida uning professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalariga nisbatan mualliflik huquqini belgilash hamda ularni tijoratlashtirish tartibi qanday?
- 2) Darsliklarni tijoratlashtirishdan tushgan mablag'lar qanday taqsimlanadi?

3) Muassasada tadqiqot olib borish davomida yozilgan dissertatsiya ishlaridan umumiy foydalanish tartibi qanday? Muallif va universitet chegaralari qanday belgilanadi?

4) Muassasada tadqiqot olib borish davomida yaratilgan ilmiy ishlanmalarga bo'lgan huquqlar qanday belgilanadi? Bunda muassasa va tadqiqotchining intellektual mulkka nisbatan huquqlari va majburiyatlari nimalardan iborat?

5) Intellektual mulkni boshqarish, uning portfelini yuritish va patentlash kimning vazifasiga kiradi? Ixtirochiningmi yoki muassasa bo'linmasiningmi?

6) va boshqa shu kabilar.

Bir qarashda kishini o'ylantiradigan savollar. Albatta, Fuqarolik kodeksi va intellektual mulk sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari mualliflik va boshqa huquqlarni tasarruf etishning umumiy asoslarini belgilab bergan. Biroq ilmiy tashkilot va tadqiqotchi o'rtasidagi intellektual mulkka oid huquqiy munosabatlarni aniq tartibga solmagan. Nizomning qabul qilinishi esa mana shu huquqiy munosabatlarni belgilab, yuqoridagi kabi savollarga javob topishga xizmat qiladi. Sodda qilib aytganda, o'yin qoidalarini belgilab beradi. Natijada, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va monografiyalarni qaysidir ilmiy daraja yoki unvonni olish emas, balki foyda olish maqsadida yozishga bo'lgan rag'bat kuchayadi. Yaxshi rag'bat esa yaxshi asarlarni dunyoga keltiradi. Darsliklar faqatgina bitta misol bo'lib, mazkur holatni boshqa intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan ham kuzatish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda barcha universitetlar, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti uchun ham Universitet 3.0 darajaga yetishish uchun fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati bilan jiddiy shug'ullanish talab qilinadi. Buning uchun "tadqiqotchi-universitet-biznes" ko'prigini yaratish lozim. Mana shu ko'prikning huquqiy asosi bo'lib esa intellektual mulk siyosati xizmat qiladi. Albatta, biz mazkur siyosat ishlab chiqilib, qabul qilingach bu boradagi barcha muammolar hal bo'ladi, oliy ta'lim sohasida universitetlar intellektual mulkini tijoratlashtirish bir necha barobarga birdan ortib ketadi, deyishdan mutlaqo yiroqmiz. Biroq "Universitet 1.0" kabi faqat ta'lim yoki "Universitet 2.0" faqat ta'lim-fan zanjiri bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasidan kutilayotgan:

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetining birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirishiga erishish kabi natijalarga erishish qiyin kechadi.

Negaki, “Universitet 4.0” kontseptsiyasi chiqqan ekan, uning 5.0, 6.0 shakllari ham chiqishi, universitet-korporatsiyalarning tashkil topishi mumkinligi ehtimoldan yiroq emas. Bu barcha universitetlar, xususan, oliy ta’lim muassasalari milliy reytingida 5 yil davomida eng yuqori o’rinlarni egallab kelgan O’zbekiston Milliy universiteti uchun katta mas’uliyat yuklaydi (1-rasm). Nima bo’lgan taqdirda ham bugun barcha universitetlar uchun universitet-sanoat hamkorligi birlamchi o’rindagi masala hisoblanadi.

1-rasm



Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi. URL: [https://nrm.uz/contentf?doc=602362_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_oliy_talim_tizimini_2030_yilgacha_rivojlantirish_koncepciyasi_\(o%E2%80%98r_prezidentining_08_10_2019_y_pf-5847-son_farmoniga_1-ilova\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=602362_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_oliy_talim_tizimini_2030_yilgacha_rivojlantirish_koncepciyasi_(o%E2%80%98r_prezidentining_08_10_2019_y_pf-5847-son_farmoniga_1-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
2. Sardor Usmanov. «Universitet 3.0» — fan-ta’lim va innovatsiya modeli. URL: <https://yuz.uz/news/universitet-30-tushunchasi-haqida>
3. Zebuniso Nuriddinova. Intellektual mulk muhofazasi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Yangi O’zbekiston, 2020 yil 12 noyabr, 218-son. 5-bet
4. Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun intellektual mulk siyosati to’g’risida Butunjahon intellektual mulk tashkilotining namunaviy nizom. Intellektual faoliyat natijalarini tijoratlash

va baholash: uslubiy qo'llanma / B.Xodjaev va boshqalar. – Toshkent: “Lesson Press” MChJ, 2021 y. – 328-bet

5. Oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi e'lon qilib borilmoqda. URL: https://uza.uz/uz/posts/oliy-talim-muassasalarining-milliy-reytingi-elon-qilib-borilmoqda_410883